



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 26-fevral, № 39 (9210)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



## POYTAXTDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI SOG'LOM MUHIT VA EKOLOGIYA TALABLARIGA MOS HOLDA RIVOJLANTIRILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-fevral kuni Toshkent shahrida urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish va yashil hududlarni kengaytirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.**

So'nggi yillarda poytaxt iqtisodiyoti va aglomeratsiyasi jadal o'sib, Toshkent shahrining doimiy aholisi 3,1 million nafardan oshdi. Shu bilan birga, 2045-yilga borib, shahar aholisi ikki barobardan ziyodga o'tishi prognoz qilinmoqda. Bu esa urbanizatsiya jarayonlarini uy-joy, transport-logistika, muhandislik tarmoqlari hamda ijtimoiy infratuzilmaga tushayotgan yuklamaga mutanosib holda rivojlantirishni talab etadi.

Shuningdek, shahar muhitini sog'lomlashtirish va turmush sifatini yaxshilash maqsadida yashil hududlarni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, Toshkent shahri va uning atrofidagi yashil zonalar maydonini uch baravarga oshirib, 25 ming gektarga yetkazish, aholi jon boshiga yashil maydonlar hajmini 3 kvadrat metrdan 6 kvadrat metrgacha ko'paytirish maqsad qilingan.

O'tgan davrda tashabbuskorlar tomonidan qurilish bo'yicha umumiy maydoni 2 ming 679 gektar bo'lgan 85 ta loyiha taklifi kelib tushgan. Taqdimotda ushbu loyihalarni kompleks ko'rib chiqishning natijalari haqida axborot berildi.

O'rganish davomida har bir loyihani shaharsozlikning yagona yondashuvi asosida baholash, hududning kamida 30 foizida yashil maydonlar tashkil etish imkoniyati, renovatsiya orqali eskirgan hududlarni kompleks yangilash hamda yer maydoni 1 gektargacha bo'lgan kichik va zich qurilishlar amaliyotidan voz kechish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ko'rib chiqish yakunlaridan kelib chiqib, 18 ta loyihani amalga oshirishga ruxsat berish, 12 ta loyihaning yer maydoni, qavatlar

soni va loyiha konsepsiyasiga o'zgartirish kiritgan holda maqbullashtirish taklif etilgan, 54 ta loyihani esa konseptual jihatdan to'liq qayta ko'rib chiqish zarur deb topilgan.

Yangi avlod maxsus sanoat zonasini kengaytirish rejalari muhokama qilindi. Buning hisobiga Toshkent shahri markazidan yirik sanoat korxonalarini bosqichma-bosqich ko'chirish, yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan va ekologiya talablariga javob beradigan ishlab chiqarishlarni joylashtirish muhim ekanini qayd etildi.

Ma'qullangan loyihalarni amalga oshirish natijasida har yili qurilish hisobidan qo'shimcha 1,5 milliard dollar yalpi hududiy mahsulot, byudjetga 3,5 trillion so'm tushumlar shakllanishi va 260 ming ish o'rni yaratilishi kutilmoqda.

Taqdimotda yashil hududlarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Loyihalarning kamida 30 foizida, ya'ni 400 gektarda yashil maydonlar tashkil etish shartligi ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, Toshkent shahrining 9 ta hududida umumiy maydoni 134 gektar bo'lgan alohida yangi jamoat parklari barpo etish rejalari ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

Loyihalardan undiriladigan infratuzilma to'lovlaridan tushgan mablag'lar, birinchi navbatda, yangi yashil hududlar barpo etishga, ortgan qismi esa shahar infratuzilmasi obyektlarini qurishga sarflanishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz poytaxtdagi urbanizatsiya jarayonlarini jamoatchilik manfaatlarini, sog'lom muhit va ekologiya talablari bilan bog'lagan holda rivojlantirish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko'ramiz.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

## ISHONCH VA IMKONIYATLAR DAVRI



*Poytaxtimizdagi Ko'ksaroy qarorgohida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvida kelajakdagi katta maqsadlarga debocha bo'lguvchi ulkan imkonlarga tamal toshi qo'yildi. Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan yuzma-yuz muloqoti g'oyat samimiy ruhda o'tdi, hayotiy misollar, aniq tashabbuslar va yangi imkoniyatlar, oppoq orzular, yuksak ishonch va maqsadlarni zargarona uyg'unlashtirdi.*

*Bo'lib o'tgan muloqotning mazmuni oddiy bir yig'ilish emas edi. Unda yigit-qizlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularga yanada keng sharoit yaratish masalasi kun tartibi markazida turdi.*

*Jamiyat taraqqiyoti yoshlarning kayfiyati va harakatiga bog'liq. Agar ularda ishonch bo'lsa, mamlakat olg'a yuradi. Shu ma'noda, bu muloqot davlat va yoshlar o'rtasidagi ochiq ko'priikka aylandi. Aytilgan takliflar, bildirilgan g'oyalar ertangi kunning yo'nalishini belgilaydigan qarorlarga zamin yaratadi. Mazkur tadbir yosh avlod rivoji yo'lidagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berishi bilan tarixga muhrlanishi, shubhasiz.*

*"Eng gullagan yoshlik chog'imda..." sahifasidan joy olgan fikr-mulohazalarda shu haqda so'z boradi.*

[4- sahifaga qarang.](#)

## “AYOLLAR, BIZNES VA QONUN” INDEKSIDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNI YAXSHILANDI

*Jahon bankining 2026-yilgi “Ayollar, biznes va qonun” indeksi hisobotiga ko'ra, O'zbekiston o'z o'rnini 43 pog'onaga yaxshilab, 100 balldan 82,1 ball bilan 190 ta davlat orasida 48-o'rinni egalladi.*

### Reyting

Xususan, ayollarning iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida O'zbekiston “TOP – 5” davlat qatoriga kiritildi. Hisobotda amalga oshirilgan qator tizimli islohotlar ijobiy baholandi.

Darhaqiqat, davlat xaridlari tizimida genderni yo'naltirilgan qoidalar joriy

etildi, qonunchilikka ayollar tadbirkorligini rag'batlantiruvchi normalar kiritildi, shuningdek, ijtimoiy himoya va mehnat sohasidagi ayrim cheklorlar qayta ko'rib chiqildi.

Natijada mamlakatimiz indeksning “Erkinlik”, “Oila”, “Mehnatga haq to'lash”, “Bola parvarishi” hamda “Mulk va meros” indikatorlari bo'yicha maksimal

100 ball to'pladi. “Mehnat” indikatorida ko'rsatkichlar 50 balldan 91,75 ballga, “Pensiya” indikatorida esa 50 balldan 66,75 ballgacha oshdi.

Shu bilan birga, hisobotda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirish, real ijtimoiy rag'bat mexanizmlarini kuchaytirish, ta'lim hamda monitoring tizimlarini izchil takomillashtirish bo'yicha islohotlarni davom ettirish tavsiya qilindi.

“Xalq so'zi”.

### Senat qo'mitalarida

## PARLAMENT NAZORATINING QONUNY ASOSLARI YANADA MUSTAHKAMLANADI

*Kecha Oliy Majlis Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda senatorlar “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga parlament nazorati faoliyati asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonunni dastlabki tarzda muhokama qildi.*

Ta'kidlandiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar parlamentning davlat va jamiyattadagi rolini kuchaytirish, parlament nazoratining samarali va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, sudyalarning mustaqilligini ta'minlash, sudyalik lavozimlariga malakali kadrlarni tayyorlash hamda tayinlash tizimini takomillashtirishga qaratilmoqda.

Mazkur qonun bilan parlament faoliyatiga oid qonun hujjatlariga palatalar qo'mitalari majlislarida davlat organlari rahbarlarining Konstitutsiya

hamda qonunlarni, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek, o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha axborotini eshitish, sudyalik lavozimlariga saylash uchun nomzodlar dastlabki tarzda Senatning mas'ul qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi milliy ma'ruzani Oliy Majlis palatalariga taqdim etishning aniq muddatini belgilashni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

[➔3](#)

### Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## DAVLAT DASTURINING 2025-YILDAGI IJROSI – DEPUTATLAR MUHOKAMASIDA

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2025-yilda bajarilishi yuzasidan hisoboti muhokama qilindi.*

Kun tartibidagi masala bo'yicha Bosh vazir o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo'chqorov axborot berdi.

Majlis avvalida o'tgan yil boshida beshta asosiy yo'nalish va yuzta maqsadni qamrab olgan davlat dasturi hamda uni tasdiqlash to'g'risidagi Prezident farmoni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgani, dastur davlatimiz rahbarining parlament palatalarida so'zlagan nutqlarida ilgari surilgan tashabbus va vazifalar asosida ishlab chiqilgani alohida ta'kidlandi.

Davlat dasturi xalqimiz va mamlakatimizning barcha ehtiyojlarini qamrab olgan edi. Unda belgilangan

ustuvor yo'nalishlar va maqsadlar doirasida barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligi ta'minlanmoqda.

Dasturning har bir yo'nalishi bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, uning natijasi xalqimiz hayotida aks etgani aytili.

Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratilgani ta'kidlandi. Jumladan, 135 ta yangi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkil etilgan. Bundan tashqari, 134 ta davlat-xususiy sheriklik asosida, 1 187 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Natijada bu tizimga bolalar qamrovi 78 foizga yetkazilgan.

[➔3](#)

## YUK VAGONLARI PARKINING KENGAYTIRILISHI TEMIR YO‘L TRANSPORTI SALOHİYATINI OSHIRADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi korxonalarda yuk vagonlarini qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusi yillar uchun rejalar taqdimoti bilan tanishdi.**

Mamlakatimizda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz logistika xizmatlari bilan ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Temir yo'l transportida keng ko'lamli yangilanish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Ular sohani tubdan modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda vagon parkini bosqichma-bosqich yangilashga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2023 – 2025-yillarda qiymati 105 million dollar bo'lgan loyiha doirasida 1590 dona yarimochiq yuk vagoni ishlab chiqarildi. Bu esa ichki va xalqaro tashuvlarda yuk aylanmasini oshirish, logistika zanjirlarining barqarorligini ta'minlash imkonini bermogda.

Shuningdek, 2025-2026-yillarga mo'ljallangan 150 million dollarlik yangi bosqichda yuk va yo'lovchi vagonlarini ishlab chiqarish, shu bilan birga, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ tarkibidagi vagon

ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Loyiha doirasida 954 dona yuk va 70 dona yo'lovchi vagonlarini ishlab chiqarish boshlangan.

Bugungi kunga qadar ushbu loyiha doirasida 45 dona yo'lovchi vagoni va 340 dona sistema ishlab chiqarildi. Joriy yil yakuniga qadar qo'shimcha ravishda 614 dona yuk va 25 dona yo'lovchi vagonlari ishlab chiqariladi.

Kelgusi yillarda yuk vagonlarini ishlab chiqarish hajmlarini keskin oshirish uchun yaqinda Prezidentimiz alohida qarorni imzolagan edi. Hujjatga muvofiq, qo'shimcha 100 million dollar qo'shimcha 100 million dollar mablag' ajratilib, 1350 dona yuk vagoni yetkazib beriladi. Buning uchun shu yilning o'zida sanoat korxonalarini quvvatlarini 1,5 barobarga oshirish va 2 mingta yuk vagoni ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari vagon parkini yangilash, tashish hajmini oshirish hamda xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O'ZA.

# OʻZLIGINI ANGLAYOTGAN AVLOD

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston yoshlari uchun betakror, muqobili yoʻq konsepsiyani ilgari surdi

Nazarimda, dunyoning birorta mamlakatida davlatning yoshlar oldidagi masʼuliyati, yoshlarning Vatan oldidagi burch va vazifalari Oʻzbekistondagi kabi aniq belgilanmagan. Prezidentimiz “yoshlarga oid davlat siyosati” deb nomlangan umumiy, manzilsiz qarashlarga butunlay barham berdi. Bu konsepsiya oʻz-oʻzidan paydo boʻlgani yoʻq. U katta tajriba, kuzatishlar, oʻrganishlar va yoshlar bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot zahirida yaratilgan.

Davlatimiz rahbari qayerga bormasin, qanday mavzuda majlis oʻtkazmasin, baribir yoshlar masalasiga toʻxtaladi. Ularning fikr-mulohazalarini tinglaydi. Qalbini eshitadi. Koʻnglini soʻraydi. Oʻz navbatida, har doim yoshlarga intiladi. Ularga oʻzgacha mehr bilan yondashadi.

Prezidentimiz – strateg. Uzoqni koʻra oladi. Yoshlarga yaqinlashish, ularni bir maqsad yoʻlida birlashtirish, qalblarida vatanparvarlik hisini kuchaytirish bugun juda-juda kerak. Millat va mamlakat taqdiri yana 10 – 20 yildan keyin bugungi yigit-qizlar qoʻlida boʻladi. Bugun Prezident yoshlarni himoya qilayotgan boʻlsa, bu millat kelajagining himoyasidir. Navqiron avlod tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishga jon jahd bilan urinayotgan boʻlsa, bu ertaga millat intellektining baland boʻlishiga asosdir.

Davlatimiz rahbari faqat bugun bilan emas, kelajak bilan yashashga undamoqda. Bugun Yer yuzida tafakkur jangi, urushi yuz bermoqda. Bunda faqat aql gʻalaba qozonadi. Zakovat, bilim ustunlik qiladi. Tabiiy boylik yoki geografik qulay joylashuv bilan taraqqiyotga erishaman degan qarashlar allaqachon eskirdi, XX asrda qolib ketdi. XXI asr tafakkur va taʼlim, intellekt asriga aylandi. Insoniyat erishgan bilimlarni oʻzida jamlagan mamlakatlar qudrati tobora ortib bormoqda. Ular ohanрабо kabi jahon miqyosidagi isteʼdodlarni tortib olmoqda, oʻzida toʻplamoqda.

Mamlakatimizda qariyb 10 yil oldin boshlangan islohotlar, ayniqsa, yoshlar misolida butunlay oʻzini oqladi. Oʻsha vaqtda ekigan nihollar mevasini koʻrmomodamiz. Yoshlar jamiyatda tezroq oʻz omiga ega boʻlish uchun intilmoqda, kurashmoqda. Ularda vatanparvarlik hissi baland. Oʻtgan davrda diplom

olishga emas, mutaxassis boʻlishga, mutaxassis boʻlganda ham, zamonaviy mutaxassis boʻlishga intilish ortdi. Yoshlarimiz oliy taʼlimning bakalavr bosqichidayoq xorijiy tillarni oʻrganmoqda. Magistraturani rivojlantirgan mamlakatlarda oʻqishga intilmoqda. Xorijdan kelgan professor-oʻqituvchilar bilan chet tilida bemalol muloqot qilishyapti. Bugungi yoshlar kompyuter texnologiyalari va internet imkoniyatlaridan bilim olish maqsadida foydalanmoqda.

Prezidentimiz bundan 10 yil oldin yoshlar ongini oʻzgartirish, ularga erkinlik berish, tafakkur qulligidan qutqarish borasida juda muhim qadamlarni tashlagan edi. Bugun tarix qaʼriga uloqtirib tashlangan majburiy mehnat, paxta yakkahokimligi, bolalar ekspluatatsiyasi deymizmi – bularning bari nafaqat farzandlarimizni oyogʻidagi tushov, balki tafakkuriga solingan kishan edi.

Ming afsuski, hatto mustaqillik ham bizni bu baloldan qutqara olmadi. Xalqimiz chorak asr majburiy mehnat boʻyinturugʻidan xalos boʻlmadi. Faqatgina Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning metin siyosiy irodasi millatni asriy azoblardan qutqardi. Ozod tafakkurli yoshlar, tarix uchun qisqa boʻlgan bir davrda, butun dunyoga Yangi Oʻzbekistonni tanitish uchun kurash olib bordi. Bu xalqaro fan olimpiadalari boʻladimi, bu shaxmat musobaqalarimi... Har jabhada ular qoʻlga kiritayotgan natijalar – faxrlanarli.

Dunyo oʻzbekni tan olishi uchun, oʻzbekni tasavvur qila olishi uchun, Yangi Oʻzbekistonni bilishi uchun juda mashaqqatli yoʻlni bosib oʻtdik. Prezidentimiz ilgari surgan konsepsiya nima uchun muhim, dolzarb, zarurat ekanini chuqur anglab yetishimiz kerak. Bugun dunyoda ong, tafakkurni egallash uchun boʻlayotgan janglarning



Shavkat Mirziyoyev

asosiy qurbonlari yoshlar ekanini unutishga haqqimiz yoʻq.

Men yarim asrdan koʻproq tariximizning guvohi sifatida shuni yaxshi bilamanki, biror-bir gʻoyani singdirmoqchi boʻlganlar hech qachon katta yoshlilarni tanlamaydi. Ularning oʻljasi yoshlar hisoblanadi. Shunday ekan, navqiron avlod ongini asrash, yot gʻoyalardan qoʻriqlash bugun har doimgidan ham muhim ahamiyatga ega. Millat hech qachon oʻz qoʻli bilan kelajagini kimlarningdir izmiga tashlab qoʻymasligi kerak.

Buning birdan-bir yoʻli – maktabgacha taʼlim, maktab, texnikum, oliy oʻquv yurti boʻladimi, har qanday taʼlim maskanida ishlaydigan muallim, professor-oʻqituvchi bolalarimizni vijdonan oʻqitishi kerak. Natija koʻrsatishi zarur. Agar har bir fan oʻqituvchisi oʻz ishiga masʼuliyat bilan yondashganda edi, bugun hayotimiz bundan-da farovon boʻlardi.

Davlatimiz rahbari rektorlar, direktorlar, professor-oʻqituvchilar faoliyatiga tanqidiy baho bergani ham bejiz emas. Millat yoshlarining yaxshi oʻqishiga, kasb-hunar egallashiga, sogʻlom boʻlishiga befarq qaragan har qanday rahbarni soxtakor deb atasa, toʻgʻri boʻladi. Uning loqaydligi millat kelajagiga qilingan xiyonatdir.

Prezidentimiz konsepsiyasida mamlakatimizda har haftaning payshanbasi “Yoshlar kuni” sifatida belgilab qoʻyildi. Bu nimanı anglatadi? Biz, rahbarlarning bosh vazifasi yoshlar boʻlishi kerakligini koʻrsatadi.

Tadbirkor boʻlishni istovchi yoshlar uchun ham misli koʻrilmagan imkoniyatlar portfeli taqdim etildi. Manba aniq. Ijrochi belgilangan. Mablagʻ ajratilgan. Oʻrtga qaytishga yoʻl

yoʻq. Yoshlar tadbirkorligiga bugungidek darajada eʼtibor qaratilganini hech qachon koʻrmaganman. Bu borada ilgari surilgan fikrlar juda muhim va foydalidir.

Prezidentimiz Garvard, Stenford, London iqtisodiyot maktabi kabi nufuzli oliy oʻquv yurtlarining ilgʻor tajribalari asosida yoshlarni oʻqitish zarurligini ham alohida taʼkidladi. “Yangi avlod tadbirkorlari”, “Kelajak tadbirkori”, “Mening birinchi kasbim” kabi dasturlarni hayotga tatbiq etish zarurligi alohida qayd etildi. Mazkur dasturlarning ijro etish manbalari ham koʻrsatib oʻtildi. “Fikringni ber” inklyuziv oromgohini tashkil qilish, “Oʻsish va rivojlanish” startap loyihisini yanada kengaytirish, “Ishla va sayohat qil” dasturining doimiy faoliyatiga erishish kerakligi uqitirib oʻtildi.

Xorijiy til sertifikatini olgan yoshlar soni tobora ortib, ular, oʻz navbatida, instruktorlik faoliyatini olib borayotgani alohida qayd etildi.

Toʻgʻrisini tan olish kerak. Bundan 10 yil oldin oʻquv markazi ochish mashaqqat edi. Bu yoʻlda shunchalik koʻp toʻsiq bor ediki, ularni olib tashlashga uncha-muncha odamning kuchi, bardoshi, sabri yetmasdi. 2016-yildan soʻng bunday byurokratik tuzoqlarning olib tashlanishi natijasida mamlakatimizning eng chekka qishloqlarida ham zamonaviy oʻquv markazlari paydo boʻldi. Bu oʻquv markazlari davlat taʼlim dargohlari bilan sogʻlom raqobatga kirisha oladigan darajaga yetdi.

Bugun mamlakatimizda xususiy oʻquv markazlari soni 3 karraga ortib, 38 mingtaga yetibdi. Bu aslida maʼrifat tarqatish yoʻlida yurtdoshlarimiz koʻrsatgan jonbozlikdir. Bugun mazkur yoʻnalishdagi yosh tadbirkorlar Oʻquv markazlari uyushmasini tashkil qilish tashabbusini ilgari surmoqda.

Prezidentimiz konsepsiyasining har bir bandini chuqur qoniqish bilan tingladim. Uni oʻz hayotiga tatbiq eta olgan yoshlar koʻz oldimda namoyon boʻldi. Ularga havasim keldi. Endigi gap yoshlarimizning oʻzida qolganday. Men ishonaman, oʻzligini anglagan avlod uchun bu konsepsiya hayot-mamot masalasidir.

Rustam XOLMURODOV,  
Samarqand davlat universiteti rektori, Oʻzbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati aʼzosi.

## HAYOTIMIZNI OʻZGARTIRGAN VOQELIK

Koʻksaroy qarorgohida boʻlib oʻtgan uchrashuv yoshlar taqdiriga bevosita taʼsir koʻrsatadigan, kelajagimiz yoʻnalishini belgilab beradigan katta siyosiy va ijtimoiy voqea boʻldi. Ochigʻini aytak, zalda oʻtirib, mamlakat miqyosidagi qarorlar qanday qabul qilinayotganini his etish boshqacha masʼuliyat beradi.

Prezidentimiz yigit-qizlarni “22 millionlik ulkan kuch” deb taʼrifladi. Gap aniq mablagʻ, mexanizm, aniq muddat va natija haqida ketdi. Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muntazam muloqoti zamonaviy boshqaruv modelining yangicha usullarini ochmoqda.

Muloqotda guvohi boʻldikki, ertamiz egalarining uchdan biri tadbirkor boʻlishni xohlaydi. Lekin xohishning oʻzi yetmaydi. Kredit, tajriba, maslahat, bozor va zarur bilimlarsiz biznes yurmaydi. Shu bois “Kelajak tadbirkori” dasturi doirasida 7 yilgacha 15 foizli kredit berilishi shunchaki yordam emas, balki ishonch demakdir. Fikrimcha, eng strategik qadam “Yoshlar biznes inkubatori” tashkil etilishi boʻldi. Chunki muammo faqat pulda emas.

Koʻpchilik biznes-reja tuzishni, marketing, eksportni bilmay qiyinaladi. Endi hududlarda kompleks yordam tizimi boʻladi. Bu startap ekotizimining yoshlar oldiga yanada yaqinroq tushishi, degani.

Har yili 600 ming yigit-qiz mehnat bozoriga kirib kelmoqda. 2030-yilga borib, bu koʻrsatkich 1 millionga yetadi. Demak, ish oʻrni yaratish shunchaki vazifa emas, bu hayot-mamot masalasi.

T e x n i k u m l a r n i modernizatsiya qilish, dual taʼlimni kengaytirish, har yili 100 ta texnikumni toʻliq taʼmirlash mehnat bozorini sifat jihatdan oʻzgartiradi. Texnikum oʻquvchilari uchun ham “Work and travel” dasturining joriy etilishi yoshlar uchun teng imkoniyatlar siyosati



boshlangani hisoblanadi. Endi faqat universitet talabalari emas, kasb-hunar yoʻnalishidagi yoshlar ham xorijda ishlash tajribasini oʻrtira oladi.

Shu oʻrinda aytish kerakki, zamonaviy kasbni bilmaganing raqobatbardoshligi past boʻladi. Shuning uchun har bir tumanga 500 mln. soʻmgacha ssuda ajratilib, laboratoriyalar tashkil etilishi yoshlarimiz kelajagi uchun amaliy investitsiya boʻladi.

Har yili jamiyatga kirib kelayotgan 270 ming yangi oilaning eng ogʻirliq masalasi – oʻzining mustaqil uy-joyiga ega boʻlishi bilan bogʻliq. Ipoteka stavkasining 14 foizdan yuqori qismini byudjet qoplab berishi yosh oilalarga real yengillik

boʻldi. Bu qaror koʻpchilikning “ijarada yurish” davrini qisqartiradi.

Uchrashuv davomida shuni his qildikki, endi yoshlar siyosati “yordam beramiz” bosqichidan “birga bajaramiz” bosqichiga oʻtdi. Avval imkoniyat bor edi, lekin mexanizm murakkab edi. Endi mexanizm soddalashmoqda. Shuningdek, kredit bor edi, lekin maslahat yoʻq edi. Endi inkubatorlar boʻladi. Tashabbus bor edi, lekin moliyaviy tayanch kuchli emas edi. Endi aniq jamgʻarmalar bor.

Mazkur muloqot yoshlar uchun tizimli harakatlar dasturi boʻldi. Endi bahona qolmayapti, sharoit bor, mablagʻ bor, taʼlim imkoniyati bor, global eshiklar ochiq, endi navbat – harakatga.

Agar biz faol boʻlsak, tashabbuslarning har biri yuzlab yoshlarning hayotini oʻzgartira oladi.

Otabek SOBITOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi.

## INTILUVCHAN YIGIT-QIZLAR QOʻLLAB-QUVVATLANADI

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan boʻlib oʻtgan bu galgi ochiq muloqotida navqiron avlod taʼlimini, bandligini, tadbirkorligini, ijodkorligi va harakatlarini qoʻllab-quvvatlash, ragʻbatlantirish hamda moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish borasida qator mezonlar belgilandi. Xususan, yoshlar orasida volontyorlik, koʻngillilik faoliyatini qoʻllab-quvvatlashga alohida eʼtibor qaratildi.

Taʼkidlash lozimki, bugun dunyo aholisining 10 foizdan koʻprogʻi volontyorlik bilan shugʻullanmoqda. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda ham volontyorlik faoliyatining huquqiy asosi yaratilgani, Volontyorlar maktabi, oliygohlarda markazlar tashkil qilingani natijasida bunday yoshlar besh karra koʻpaydi. Ekologiya, tibbiy xizmat, taʼlim, favqulodda vaziyatlarda koʻmaklashish yoʻnalishidagi volontyorlarning soni 100 mingdan oshdi.

Prezidentimiz tomonidan mana shunday tashabbuskorlarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida vazirlik va idoralar rahbarlari, faol koʻngilli yoshlardan iborat Volontyorlik harakatini rivojlantirish boʻyicha Vasiylik kengashini tashkil qilish taklif etilgani yigit-qizlarning ijtimoiy faolligini yanada oshiradi, desak, yangilashmaymiz. Shu bilan birga, Volontyorlikni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasiga har yili byudjetdan 20 mlrd. soʻmdan mablagʻ berilishi, bunga qoʻshimcha tariqasida ham zarur mablagʻ ajratilishi koʻzda tutilgani eʼtiborga molik.

Muhim yangiliklardan yana biri – yoshlarning volontyorlik loyihalariga 100 mln. soʻmgacha grant mablagʻlari beriladi. Koʻngillilarga “ijtimoiy faollik kartasi” ochilib, ekologiya, ijtimoiy himoya, tibbiyot, taʼlim, jamoat xavfsizligi kabi yoʻnalishlardagi ishtirokiga qarab, ball berib boriladi.

Ushbu ijtimoiy kartalar orqali yoshlarning volontyorlik faoliyati tarixini yuritish, ijtimoiy faollik ixtisoslashuvi darajasini qayd etish, volontyorlik tashabbuskorligi yuzasidan berilgan “ijtimoiy ball” miqdorini yuritib borish, “ijtimoiy ball”ni moddiy yoki boshqa ehtiyojlar uchun sarflash imkoniyati paydo boʻladi.

Jahon soha mutaxassislari xulosalariga koʻra, jamoalardagi ishonch va hamkorlik darajasi yuqori boʻlgan joylarda yoshlarning muvaffaqiyati oshadi. Masalan, oʻquvchining taʼlim muassasasi yoki jamoat tashkiloti faoliyatidagi jamoatchilik ishlarida koʻngilli sifatida ishtirok etishi uning taʼlimi va akademik koʻrsatkichlariga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bunday harakatlar orqali ijtimoiy faollikni oshirish yoshlarning kelajakda kasbga ega boʻlishi, jamiyatda oʻz oʻrnini topishi, olgan bilimlari va akademik koʻrsatkichlarini amaliy ifodalashi orqali yaxshilash uchun imkoniyat boʻladi.

Shu sababli ham, hozirda dunyodagi barcha yetakchi nufuzli oliy taʼlim muassasalari talabalik uchun nomzodlarni saralaganda yigit-qizlarning akademik koʻrsatkichlari bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy faolligiga qaratib ustuvorlik bermoqda. Shunday ekan, yoshlarning koʻngillilik harakatini ular maktabni bitirmasdan oldin, yaʼni aynan bolalikdan boshlab olib borishga eʼtibor qaratish muhim sanaladi. Koʻngillilik harakatlariga ekologik, huquqiy, inklyuziv, sport, madaniyat va boshqa yoʻnalishlarda volontyorlik ixtisosliklarini joriy etish mamlakatimiz uchun dolzarb.

Albatta, bunday tashabbuslar yoshlarda bagʻrikenglik, birdamlik kabi xislatlarni tarbiyalashga, ularning faol fuqarolik pozitsiyasini oshirishga, foydali ish bilan band qilishga, oʻzlari tanlagan va qiziqqan yoʻnalish boʻyicha muammolarning yechimida ishtirok etishga, qolaversa, kadrlar zaxirasini toʻldirishga ham xizmat qiladi.

Madina BARATOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi aʼzosi.

ozodlikka chiqqach, avvalo, ishonch yetishmovchiligi, ish topish qiyinligi va ijtimoiy bosim bilan yuzma-yuz keladi. Ana shunday vaziyatda davlat tomonidan “Ikkinchi imkon” loyihasining yoʻlga qoʻyilishi katta insoniylik va adolat timsoli boʻladi.

Bu tashabbusning muhim jihati shundaki, u yoshni oʻtmishi bilan emas, kelajagi bilan baholaydi. Kurslar orqali zamonaviy kasblarni egallash, xorijiy tillarni oʻrganish va daromadli ishga joylashish imkoniyati berilishi ham iqtisodiy, ham maʼnaviy qoʻllab-quvvatlashdir.

Yangi imtiyoz va dasturlar yoshlarning tashabbusiga qanot beradi, biroq natija, avvalo, oʻzimizga bogʻliq. Biz, yoshlar berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalansak, tengdoshlarimiz uchun yangi ish oʻrinlari yaratiladi. Milliy brendlar shakllanadi, zamonaviy kasb egalari koʻpayadi va albatta, ijtimoiy faollik, fuqarolik masʼuliyati kuchayadi.

Shohrux OʻKTAMOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi oʻrinbosari.



## ULUGʻVOR MAQSADLAR YOʻLIDAGI USTUNLARIMIZ

Orzu-umidlarimiz roʻyobi bilimdon va shijoatkor, kreativ fikrlaydigan yoshlarga bogʻliq, ulugʻvor maqsadlarga erishishimizda ular bizga tayanch boʻladi. Ulkan vazifalar, ezgu gʻoyalarni aynan tashabbuskor va salohiyatli yoshlar bilangina amalga oshira olamiz.

Prezidentimizning Koʻksaroy qarorgohida yoshlar bilan samimiy muloqoti chogʻida kelajagimiz egalarining bandligini taʼminlash, ularning bilim va hunar oʻrganishlari, baxtli hayot kechirishlari uchun dasturiylamol boʻladigan qator ezgu gʻoyalari, yangiliklar, misilsiz imkoniyatlar, huquqiy va moliyaviy qoʻllab-quvvatlashlar haqida aytib oʻtildi.

Mazkur tashabbuslar yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularni kasb-hunarga oʻqitish, innovatsion gʻoyalarni qoʻllab-quvvatlash, yangi ish oʻrinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ular uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, startap loyihalarini moliyalashtirish, biznes inkubatorlar tashkil qilinishi, oʻquv markazlari faoliyatini qoʻllab-quvvatlash hamda xalqaro tajribani oʻrganish imkoniyatlarining kengaytirilishi yoshlarning oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Ayniqsa, yoshlar tadbirkorligini qoʻllab-quvvatlash uchun yuz millionlab dollarlik mablagʻlar ajratilishi, garovsiz kreditlar, startap loyihalar uchun investitsiyalar, “Yoshlar biznes inkubatori”, “Kelajak tadbirkori” kabi dasturlar navqiron avlodning oʻz biznesini boshlashi, bandligini taʼminlashi hamda iqtisodiyotimizning tayanch kuchiga aylanishiga yaqindan yordam beradi.

Taʼkidlanganidek, bugun yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida tashkil etilgan Yoshlar parlamentlari haqiqiy demokratiya maktabi sifatida ularda siyosiy yetakchilik mahoratini shakllantirishda yaqindan yordam berayotir. Prezident maktablari iqtidor egalarni tarbiyalashga munosib hissa qoʻshayotgan nufuzli bilim maskani sifatida dunyoda eʼtirofini topmoqda.

Keyingi oʻn yillikda yurtimizda yoshlarning huquq va erkinliklarini taʼminlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bandligiga koʻmaklashish, biznes bilan shugʻullanishga qoʻshimcha imkoniyatlar yaratish borasida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilyapti. Prezidentimiz tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar mazkur islohotlarning bardavomligiga xizmat qilmoqda.

Nurli iqtibolimiz egalari uchun yaratilayotgan bu kabi qulaylik va imtiyozlar ularning jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻlishi, farovon hayot kechirishi, zamonaviy kasb-hunarlarning yetuk mutaxassisi sifatida mamlakatimizning dunyoning rivojlangan davlatlari orasida mustahkam oʻrin egallashiga oʻz hissasini qoʻshishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan mazkur tashabbuslar yoshlarning jamiyatdagi oʻrni va nufuzini yanada mustahkamlab, mamlakatimizning barqaror iqtisodiy rivojlanishi hamda Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Shuhrat ASLANOV,  
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi aʼzosi.

Yosh oilalar uchun uy-joy ipoteka dasturi doirasida kredit stavkasining 14 foizdan oshgan qismi byudjetdan qoplab beriladi.



## PARLAMENT NAZORATINING QONUNY ASOSLARI YANADA MUSTAHKAMLANADI



Shundan soʻng "Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga iqtisodiy va ma'muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolar va tadbirkorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga hamda odil sudlovga erishish darajasini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ham muhokamaga tortildi.

Ushbu qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks ma'muriy sud tomonidan nizolarni hal etish jarayonida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish tartibini nazarda tutuvchi norma bilan to'ldirilmoqda. Bundan tashqari, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi va Iqtisodiy protsessual kodekslarga ekstritorial sudlovga tegishlikni joriy etishga qaratilgan o'zgartirish

va qo'shimchalar kiritilyapti. Shu bilan birga, Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga davlat organining mansabdor shaxsi yoki vakilining ma'muriy sud majlisida majburiy ishtirok etishini ta'minlash, ishonchning huquqiy himoyasi tamoyili va dastlabki eshituv institutini kiritish nazarda tutilmoqda.

Alohida ta'kidlanganidek, bunday o'zgartirishlar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun sudlarga murojaat qilishda yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qo'mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

## INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHGA DOIR ISHLAR SARHISOB

Mamlakatimiz parlamenti yuqori palatasi qo'mitalarida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2025-yildagi faoliyati to'g'risidagi ma'ruzasi ko'rib chiqilmoqda. Kecha Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisida Ombudsmanning hisoboti tinglandi.

Aytilganidek, o'tgan yilda Inson huquqlari bo'yicha vakil nomiga 26 372 ta murojaat kelib tushgan. Va 194 ta ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lib, shundan 36 ta taqdimnoma, 24 ta xulosa, 12 ta talabnoma, 4 ta ogohlantirish hamda 118 ta ariza va da'vo arizasi kiritilgan. Ularning 82 foizi ijobiy hal qilingan.

Ombudsman va jamoatchilik guruhlari tomonidan jazoni ijro etish

Ta'kidlanganidek, fuqarolarning murojaatlari va bolalarga nisbatan sodir qilingan jinoyatlarga oid sud xabarnomalari asosida Bolalar ombudsmeni va uning kotibiyati xodimlari 46 ta fuqarolik, jinoyat va ma'muriy ishlar yuzasidan sudlarda kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan.

Shu bilan birga, 2025-yilda Bolalar ombudsmeni nomiga O'zbekiston Respublikasi



muassasalariga 954 ta monitoring tashrifi amalga oshirildi.

Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va parlament nazoratini kuchaytirish maqsadida 2025-yilda "Tenglik va hurmat" platformasi ishga tushirilgan. Ushbu platforma doirasida ayollarning reabilitatsiya va maslashtirish markazlarida tadbirlar o'tkazilib, zo'ravonlikka uchragan 150 nafardan ziyod xotin-qizlar bilan jamoaviy va individual suhbatlar tashkil etilgan.

"Ombudsman maktabi" loyihasi doirasida respublika bo'ylab 124 ta shahar va tumanlarda targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, ommaviy axborot vositalarida 4,7 mingdan ortiq chiqishlar amalga oshirilgani ta'kidlandi.

Majlisda inson huquqlarini himoya qilish yo'nalishida jamoatchilik institutlari va davlat organlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda parlament nazoratini yanada samarali tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi hamda Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasining qo'shma majlisida Oliy Majlis Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmeni)ning bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari tomonidan rioya etilishi haqidagi ma'ruzasi ham ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

# DAVLAT DASTURINING 2025-YILDAGI IJROSI — DEPUTATLAR MUHOKAMASIDA



Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha dasturlar doirasida minglab fuqarolar kasb-hunarga o'qitilgan, kreditlar ajratilgan hamda ularning bandligi ta'minlangan. Kambag'allik darajasi 5,8 foizgacha qisqardi.

Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishidagi ustuvor maqsadlarga erishish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilgan. Jahon miqyosida ishlab chiqarish va transport-logistika zanjirlari uzilgan, xomashyo va moliyaviy resurslar narxi oshgan sharoitda ham mamlakatimiz iqtisodiyoti ishonchli va barqaror o'sishda davom etib, makroiqtisodiy yuksalishni ta'minlashga xizmat qilgan.

Xususan, 2025-yilda yalpi ichki mahsulot 107,7 foizga, jumladan, sanoat — 106,8, qurilish — 114,0, xizmatlar — 108,5, qishloq xo'jaligi 104,4 foizga o'sgan. Ekspert ilk bor 33,8 mlrd. dollarga yetgan. Jami qiymati 43,1 mlrd. AQSH dollari bo'lgan xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, o'tgan yildagiga nisbatan 124 foiz o'sishga erishilgan. Oltin-valyuta zaxiralарimiz ilk bor 60 mlrd. AQSH dollaridan oshgan.

Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishning ustuvor yo'nalishlari doirasida 14 ta hududda ichimlik suvi sifatini monitoring qiluvchi markaziy laboratoriyalar tashkil etilib, namuna olish punktlari soni 220 mingga yetkazilgan.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 265 mln. tup daraxt va buta ko'chati ekilgan,

"yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari" yaratilgan, 251 ming gektar "yashil qoplama" himoya o'rmonzorlari barpo qilingan.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish maqsadida Prezidentimizning tegishli farmoni qabul qilingan.

Mahalliy hokimliklar faoliyati transformatsiya qilingan. O'tgan davrda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 100 dan ziyod yangi xizmat va servislar ko'rsatilishi yo'lga qo'yilib, xizmatlar soni 800 taga yetkazilgan.

"Xavfsiz va tinchlikparvar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosat izchil davom ettirilib, xususan, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish doirasida mamlakatimizda nufuzli anjumanlar o'tkazildi. O'zbekistonning xalqaro maydondagi mavqei yanada mustahkamlandi. Shu bilan birga, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida milliy qonunchilikni uyg'unlashtirish ishlari izchil olib borildi. Bunda parlament, xususan, Qonunchilik palatasi ham faol qatnashmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mintaqasida ilk bor Samarqand shahrida BMTning Davlat xizmati bo'yicha forumi, YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi, Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi, to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Mazkur tarixiy tadbirlar O'zbekistonning global diplomatiya markazi sifatida

obro'sini yanada oshirdi, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, madaniy va parlament diplomatiyasini rivojlantirish hamda global tashabbuslarni ilgari surishda muhim platforma vazifasini bajardi.

Prezidentimizning doimiy e'tibori va nazorati asosida davlat dasturida belgilangan barcha vazifalarning samarasi, avvalo, xalqimizning farovonligida aks etayotgani ta'kidlandi.

Shuningdek, dastur ijrosi Vazirlar Mahkamasining Rayosati majlislarida doimiy muhokama qilib borilgan, hukumat vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etganligi aytiladi.

Davlat dasturi ijrosini ta'minlashda quyi palata bilan hukumat samarali hamkorlik qilgan. Qonunchilik palatasining majlislarida hukumat a'zolarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axboroti doimiy eshitib borilgan. Jumladan "Hukumat soati", parlament so'rovi va deputat so'rovi institutlaridan samarali foydalanilgan. Qonunchilik palatasi qo'mitalarining majlislarida Davlat byudjeti mablag'larining maqsadli sarflanishi, samaradorlik indikatorlariga erishilishi yuzasidan davlat organlari rahbarlarining axborotlari muntazam eshitib borilgan.

Har oyning oxirgi haftasida deputatlar hududlarda, saylov okruglariga chiqib, dastur ijrosini o'rganib, mahalliy davlat organlari bilan hamkorlikda joylardagi masalalarni hal etib borgani aytib o'tildi.

Axborotda keltirilganidek, ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida



hisobot davrida davlat dasturi doirasida bajarilishi belgilangan jami 818 ta topshiriqdan 710 tasining ijrosi to'liq ta'minlangan, qolgan bandlarning ijrosi bo'yicha ishlar davom etmoqda.

Deputatlar tomonidan mazkur vazifalar ijrosini tezlashtirish, ayrim qonun loyihalarini qisqa muddatlarda parlamentga kiritish zarurligi ta'kidlandi.

Majlisda taqdim etilgan hisobotda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani izchil rivojlantirishni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar batafsil bayon qilingani aytiladi. Deputatlar bunda davlatimiz rahbari tomonidan imzolangan farmon va qarorlar, sohalar kesimida ilgari surilgan muhim tashabbuslar, belgilab berilgan chora-tadbirlar dasturni hayotga tatbiq etishda muhim omil bo'lganini ta'kidladi.

Muhokama chog'ida davlat dasturi ijrosini ta'minlashda mutasaddi vazirlik va idoralarning mas'uliyatini yanada oshirish,

belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini o'rnatish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Xususan, investorlarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda qulayliklar yaratish, raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, bank va to'lov tizimlarida kiberxavfsizlikni kuchaytirish, aholi bandligini ta'minlash, ehtiyojmand xotin-qizlarni va nogironlarni bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator takliflar berildi.

Shu bilan birga, umumta'lim maktablarini qurish (ta'mirlash), inklyuziv ta'limni takomillashtirish, ekologik muammolarga yechim topish, chiqindi poligonlarini rekultivatsiya qilish, suv resurslaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq masalalar yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilishi maqsadga muvofiq ekanini qayd etildi.

Muhokama yakunida davlat dasturining ijrosiga oid hisobot yuzasidan siyosiy partiyalar fraksiyalarining munosabatlari eshitilib, tegishli qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

## ADOLAT HUKM SURGAN YURTDA TARAQQIYOT VA FAROVONLIK BO'LADI

Yaqinda davlatimiz rahbari ishtirokida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta'minlash bo'yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazilib, unda huquq-tartibot tizimi poytaxtdagi yangiliklarga mos ishlamayotgani tanqid qilingan edi.

### Aks sado

Ayrim tumanlarda oilaviy zo'ra vonlik, talonchilik, bezorilik, bosqinchilik holatlari ko'payib borayotgani tilga olinib, mas'ul idoralar bunday jinoyatlarga qarshi kurashishda yangicha yondashuvni joriy qilishi zarurligi alohida qayd etildi. Shu bilan birga, uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar, kiberjinoyatchilik va "yashirin iqtisodiyot" bo'yicha jilovni qo'lga olish zarurati ko'rsatib o'tilib, ushbu 4 ta yo'nalishda mutlaqo samarali tizim yaratilishi, bu jarayon, avvalo, Toshkent shahrida boshlanishi ma'lum qilindi. Jumladan, xavfsiz muhit yaratish borasida "poytaxt namunas" joriy etiladigan bo'ldi.

Albatta, yig'ilishda ko'tarilgan masalalar oddiy vazifalar emas. Ular poytaxtimizda huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlari sodir etilishining oldini olish, jamoat tartibini saqlash, jamiyatga qonun ustuvorligini ta'minlash, qisqacha aytganda, mamlakat taraqqiyotiga daxldor vazifalar, desak, ayni haqiqat.

### Hamkorlikda hikmat ko'p

Sir emas, bir jinoyatning oldini olish yoki fosh etish hech qachon bir kishi ishtirokida bo'lmaydi. Bu jarayon bir nechta idoralar hamkorligida amalga oshiriladi. Bu esa "Hamkorlikda hikmat ko'p" degan naqlning naqadar hayotiy ekanini yaqqol ko'rsatadi.

Shu ma'noda, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda nafaqat huquq-tartibot idoralari, balki mahalla, umumta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda keng jamoatchilik vakillarining hamkorligi g'oyat muhim.

Albatta, Prezidentimizning yig'ilishda bergan topshiriqlarini so'zsiz bajarish, qolaversa, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jinoyat hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha o'zimizga aqlik "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqib, shu asosda tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Ayniqsa, tuman prokuraturasi tomonidan tuzilgan alohida dastur shunchaki qog'ozdagi reja emas, balki joriy yilda kriminogen vaziyatning chuqur tahliliga asoslangan aniq amaliy harakatlar strategiyasi bo'ladi, desak, mublag'a emas.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda "qizil" va "og'ir" toifadagi mahallalarni "yashil"ga olib chiqish ustida qat'iy ish olib borilyapti. Mahallalardagi og'riqli nuqtalarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, tumanimizda 51 ta mahalla mavjud. Ulardan



13 tasi "yashil" toifaga kirgan bo'lsa-da, 36 tasi "sariq", 2 tasi esa "qizil" toifada turibdi. Ammo mana shu "qizil"dagi ikkita mahalla ham biz uchun ko'p, buyam og'riqli nuqtamiz. Hududimizda umuman "qizil" toifadagi mahalla bo'lmisligi kerak. Buning uchun esa barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz, avvalo, sohada nazorat bilan birga, mahalla va keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur deb hisoblaymiz.

"Mahalla yetilligi" bilan hamijihatlik samarasi o'laroq yildan-yilga tumanimizda jinoyatlar soni qisqarishiga erishildi. Endilikda asosiy e'tiborimizni "prokuror nazorati" tamoyili asosida har bir xonadonga kirib borib, ishsizlik hamda ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni joyida hal etishga qaratamiz. Zero, mahalladagi tinchlik — yurt osoyishtaligi garovi.

### "Virtual niqob"ga qarshi kurashishda yangicha yondashuv

Bugun jinoyatchilik tushunchasi faqat ko'cha-ko'ya sodir bo'lmaydigan og'irlik yoki bezorilik bilan cheklanmay qoldi. Raqamli texnologiyalar asrida jinoyatchilik ham "virtual niqob" taqib, o'z qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda. Oson pul tushirish harakatida birikkan to'dalar faollashib, jinoyatning yangi usul va vositalari paydo bo'lmoqda.

Shayxontohur tumanida keyingi yillarda umumiy jinoyatchilik ko'rsatkichlari kamaygani quvonarli hol, albatta. Biroq barchamizni hushyor tortishga majbur qiladigan yana bir jihat borki, bu axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlar o'tgan yildagiga nisbatan keskin oshgani bilan bog'liq. Bu minglab hamyurtlarimizning ishonuvchanligi ortidan o'z mablag'larini yo'qotishi, oilaviy byudjetga yetkazilayotgan jiddiy zarardir.

Xo'sh, keskin avj olayotgan mazkur vaziyatga qarshi qanday kurashamiz? Bu borada nimalarga e'tibor qaratishimiz lozim?

Ayni yo'nalishdagi ishlarni qayta ko'rib chiqqan holda endilikda faoliyatimizni "Kiberxavfsizlik va raqamli immunitet" tamoyili asosida tizimli tashkil etishga ustuvor ahamiyat

qarataypmiz. Bu borada mutlaqo yangi kurash mexanizmlari joriy etilmoqda.

Birinchi — "Raqamli gigiyena" targ'iboti. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kiberjinoyatlarning aksariyati fuqarolarning soddaligi yoki yetarli bilimiga ega emasligi sababli yuz bermoqda. Shu bois prokuratura organi bank muassasalari hamda faol jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha keng qamrovli kampaniyani boshladi. Maqsadimiz har bir fuqaroga bank kartasining SMS-kodlarini hech kimga bermaslik, shubhali havolalarga kirmaslik va internetdagi "oson daromad" va dalariga uchmaslikni tushuntirish orqali ularni "raqamli immunitet"ni shakllantirishdir.

Ikkinchi — tezkor reaksiya tizimi. Virtual o'g'irliklarga chek qo'yishda vaqt omili eng muhim sanaladi. Shu sababli tuman IIO FMB tarkibida kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha maxsus guruhlar faoliyati kuchaytirildi. Endilikda jabrlanuvchidan ariza tushgan zahoti bank hisob raqamlaridagi shubhali operatsiyalarni zudlik bilan to'xtatish va mablag'larni "muzlatish" bo'yicha banklar bilan elektron hamkorlik mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda.

Uchinchi — zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi. Jinoyatchilar virtual olamda harakat qilsa-da, o'g'irlangan mablag'larni real hayotda naqdlashtirishga urinadi. Tuman hududidagi kameralar va ulardagi mavjud bo'lgan "Face ID" (yuzni tanish) tizimi imkoniyatlaridan foydalangan holda bankomatlar orqali jinoiy yo'l bilan topilgan pullarni yechib olayotgan shaxslarni aniqlash va ushlash choralari ko'rilmoqda.

Aytish joizki, bunday yangicha yondashuvlar nafaqat tumanimiz ko'chalari, balki internet kengliklarini ham aholi uchun xavfsiz hududga aylantirishga xizmat qiladi.

### Xotirjamlikka o'rin yo'q

Jamiyat xushandasi bo'lgan gijohvandlikka qarshi kurash — bugungi kun tartibidagi kechiktirib bo'lmamas masalalardan biri. Yig'ilishda davlatimiz rahbari ushbu muammoda ham urg'u berib, narkojinoyatchilik va uyushgan guruhlariga qarshi kurash bo'yicha narkoanallarning oxirgi manbasi va homiyilarigacha yetib borish uchun mas'ullarda qat'iyat yo'qligini tanqid qildi.

Prezidentimiz topshiriq'ini so'zsiz bajarish maqsadida prokuratura organlari endilikda kurash taktikasini o'zgartirmoqda. Asosiy e'tibor "Dorixona nazorati" orqali kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy savdosiga hamda yoshlarni o'z domiga tortayotgan sintetik vositalarning internet orqali aylanmasiga qaratiladi. Maqsadimiz faqat jinoyatchini jazolash emas, balki "zahri qotil"ning yoshlar qo'lga yetib borishiga yo'l qo'ymaydigan mustahkam to'siq qo'yishdir.

Biz uchun har bir raqam ortida inson taqdiri yotibdi. Shayxontohur tumanida istiqomat

qilayotgan fuqarolarning har biri ertangi kunimiz egalari, millat genofondidir. Shu bois maktab, litsey va kollejlarda o'tkazilayotgan targ'ibot ishlari shunchaki ma'ruza emas, balki aniq manzilli profilaktikaga aylandi. Quvonarlisi, bu sa'y-harakatlar o'z mevasini bermoqda. 2025-yilda voyaga yetmaganlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni oshmagan bo'lsa, maktab o'quvchilari o'rtasidagi huquqbuzarliklar naq 40 foizga kamaygan. Bu "mahalla — oila — ta'lim muassasasi" zanjiri to'g'ri ishlayotganining yorqin dalilidir.

Ammo xotirjamlikka o'rin yo'q. Tuman prokuraturasi gijohvandlik dardiga yo'lliqqan shaxslarni davolash va ijtimoiy hayotga qaytarish, eng muhimi, 51 mingdan ziyod navqiron avlod vakillarini ushbu balodan asrash yo'lida keng jamoatchilik bilan bir musht bo'lib harakat qilishda davom etadi.

Yana bir dolzarb masala, bu korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq. Ushbu illatni quritishning eng samarali usuli — sohada inson omilini kamaytirish va ochiqlikni ta'minlash. Shayxontohur tumanida bu borada amalga oshirilgan raqamlashtirish islohotlari bugun o'zining ilk va haqqoniy natijalarini ko'rsatmoqda.

Avvallari ayrim holatlarda hududiy ko'rsatkichlarni "yaxshi" qilib ko'rsatish maqsadida jinoyatlarni yashirish yoki ro'yxatga olmaslik holatlari kuzatilib, bugungi kunda joriy etilgan "Yagona elektron tizim" bunga mutlaqo yo'l qo'ymaydi. Endilikda fuqarodan kelib tushgan har bir murojaat elektron bazaga kiritiladi va uning ijrosi prokuratura organlari tomonidan onlayn tarzda qat'iy nazorat qilinadi. Prokuratura organi bundan buyon ham jinoyat haqidagi xabarlarini yashirish, sansalorlikka solish va byurokratik to'siqlar yaratish kabi illatlarga qarshi murosasiz kurashadi. Biz uchun muhimi — qonun ustuvorligi va fuqarolar roziligi.

Shubhasiz, qonun ustuvorligi — farovon hayotimiz va ertangi kunimiz kafolati. Shayxontohur tumani prokuraturasi jamoasi uchun Prezidentimizning tarixiy videosektor yig'ilishidagi topshiriqlari shunchaki xizmat vazifasi emas, balki kechiktirib bo'lmamas dasturilamal va hayotiy mezonidir. Shu ma'noda, bizning oliy maqsadimiz mahalla tinchligi va aholi osoyishtaligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish bo'lib qolaveradi. Va bundan buyon ham "Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar, xalq — rozi" tamoyili asosida tunu kun faoliyat yuritib, jinoyatchilikka qarshi murosasiz kurashish hamda adolatni qaror toptirish yo'lida bor kuch va salohiyatimizni safarbar etamiz.

Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Qonun ustuvor bo'lgan yurtdagina adolat bo'ladi, adolat hukm surgan joyda esa, albatta, rivojlanish va farovonlik bo'ladi".

Akmal USMONOV,  
Shayxontohur tumani prokurori.



## ENG GULLAGAN

## ZIMMAMIZDAGI MAS'ULIYAT G'AYRATIMIZNI OSHIRDI

**Abdulaziz MO'MINOV,****Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari:**

– Prezidentimizning yoshlar bilan uchrashuvida belgilangan vazifalar navqiron avlodga keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, “Kelajak tadbirkori” dasturi doirasida 7 yilgacha 15 foizli kreditlar ajratilishi navqiron avlodning biznes g'oyalari ro'yobga chiqarishda mustahkam tayanch bo'ladi. “Mening birinchi kasbim” dasturi orqali bitiruvchilarga oyiga 2 million so'mgacha stipendiya berilishi esa ularning mehnat bozoriga ishonch bilan kirib kelishini ta'minlaydi. Bu tashabbuslar yoshlarni qo'llab-

quvvatlashda yangi davrni boshlab beradi.

Davlatimiz rahbarining otalarcha g'amxo'rliklari sharofati bilan “Ko'mak” dasturi doirasida 130 mln. so'mgacha va tadbirkorlikni kengaytirish uchun 300 mln. so'mgacha foizsiz ssudalar ajratilishi, olis hududlarda soliq imtiyozlari berilishi joylardagi tashabbuskorlar uchun katta qulaylikdir. Qisqa vaqt ichida 120 dan ziyod o'quv markazlari ish boshlagani bu ishlarning samarasini ko'rsatmoqda. Bu

natijalar yoshlarimizning g'ayrati va ishonchini yanada oshiradi.

Yiliga 20 ming o'smirlarni kelajak kasblariga o'qitish, har bir tumanga 500 mln. so'mgacha ssuda ajratib, laboratoriyalar tashkil etish vazifasi Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu toshiriqlar bizdan tizimli yondashuv, aniq nazorat va yuqori samara talab qiladi. Shu bilan birga, mazkur vazifalar yoshlarning bilim olishi, zamonaviy kasb egallashi va o'z kelajagini barpo etishi uchun keng yo'l ochadi.

Biz ushbu ishonchni oqlashni o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'ydik.

## HUNARGA E'TIBOR – KELAJAK POYDEVORI

**Sultonmurod FARHODOV,****Toshkent shahridagi “Zargarlik akademiyasi” asoschisi:**

– Uchrashuvda bitiruvchi yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorlarga berilayotgan imtiyozlar haqidagi qarorni katta mamnuniyat bilan qarshi oldim. 15 yillik tajribaga ega zargar sifatida shuni aytamanki, bu qaror yoshlarga yuksak ishonch va tadbirkorlar uchun kuchli rag'batdir. Davlat byudjeti uchun muayyan xarajat talab etsa-da, bu bizning kelajagimizga qilingan muhim sarmoya. “Yashirin iqtisodiyot”ga qarshi kurash kuchaygan bir davrda yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizni halol va shaffof olib borishimiz shart.

Faoliyatim davomida 500 dan ortiq shogirdlar tayyorladim. Bugun ular yurtimizda va Osiyo davlatlarida mehnat qilmoqda. Xorijdan kelib, zargarlikni o'rganish istagini

bildirgan yoshlar borligi sohamizda eksport salohiyati mavjudligini ko'rsatadi.

Uchrashuvda texnikumlarda zargarlik yo'nalishlarini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish taklifini ilgari surdim. Zargarlikda 5 yil shogird bo'lib yurish shart emas. Amaldagi dasturimiz asosida 8 oylik tizimli ta'lim orqali yoshlar kasb egallab, korxonalarda ishlashi yoki mustaqil faoliyat boshlashi mumkin.

Shuningdek, mis, kumush va oltinga ishlov berish, “3D” dasturlar va sun'iy intellekt asosida ishlaydigan zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish g'oyasini bildirdim. Yoshlar o'qish jarayonidayoq mahsulot yaratib, uni bozorda sinovdan o'tkazishi kerak. Maqsad – har yili 500 nafar raqobatbardosh, o'z brendiga ega zargar-tadbirkorni tayyorlash.

Bugun yurtimizda 700 dan ortiq zargarlik korxonalari bor. Kadrlarga ehtiyoj yuqori. Qo'shni davlatlarda ham mutaxassislarga talab katta. Bu imkoniyatni qo'ldan boy bermasligimiz kerak.

Yoshlarimizni zargarlikka qiziqitirish, ularga hunar o'rgatish va bandligini ta'minlash bo'yicha tashabbuslarda faol qatnashishga tayyorman. Ta'bir joiz bo'lsa, oldin manzilga piyoda intilayotgan bo'lsak, bugun mamlakat rahbarining yaratayotgan sharoitlari tufayli shu maqsad sari tezroq va osonroq yetib borish imkoni paydo bo'lmoqda.

Uchrashuvda yurtimizda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro shaxmat olimpiadasidan ilhomlanib, Prezidentimiz uchun shaxmat shoh donasini yasaganimizni aytdim. Uni butun yoshlar nomidan taqdim etish men uchun katta g'urur bag'ishladi.



## CHO'G'IMDA...

## HAR BIR IQTIDOR MEHRDAN KUCH OLADI

**Umarbek KARIMOV,****Urganch tumanidagi 11-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi****Otamurod Reimbayevning otasi:**

– Uchrashuvda o'g'lim Otamurod tor chertib, “Mustahzod” qo'shig'ini ijro etgani va unga davlatimiz rahbarining otalarcha g'amxo'rligi, qo'llab-quvvatlashi qalbmni nihoyatda to'liqlantirdi. Ushbu voqea ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi, oilamiz bilan o'g'limizdan juda faxrlandik.

Otamurodning musiqaga qiziqishi 4 yoshidan boshlangan. Qo'shni qishlog'imizdagi iste'dodli xonanda Og'abek Sharifboyev uning iqtidorini ko'rib, kelgusida yaxshigina ijodkor chiqadi, degan e'tirofdan keyin uning san'atga mehri yanada ortdi. O'g'lim 9 yoshida qishlog'imizdan 17 kilometr uzoqda joylashgan Urganch tumanidagi 11-bolalar musiqa va

san'at maktabiga qatnay boshladi. Tor sirlarini birinchi ustози Oybek Atayevdan o'rgandi. Shu mehnatlar samarasi kechagi kunda yaqqol ko'rindi.

Prezidentimiz tomonidan farzandimga avtomobil sovg'a qilingani butun oilamiz uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Bu e'tiborni qishlog'imiz ahli, tumandoshlarimiz va butun Xorazm xalqi katta quvonch bilan qarshi oldi. “Qishlog'imiz bolasi Prezidentdan mashina oldi”, degan gapni eshitishning gashti bo'lakcha bo'ldi.

Men uchun baxt – farzandimning san'atga qiziqishi, ixlosi qadrlanganidir. Prezidentimizning yosh iste'dodlarga berayotgan mana shunday e'tibori yuragimizga bir olam shodlik bag'ishladi. Bu umrbod yodda saqlashga arzigulik voqea bo'ldi. Zero, har bir iqtidor mehrdan kuch oladi.

Mamlakatimizda yoshlar siyosati kun sayin sayqallanib bormoqda. Aytilgan har bir tashabbus ortida amaliy qadam turibdi. Bu ishonch va g'amxo'rlik yoshlarni yanada faol, yanada mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi. Eng muhimi, yigit-qizlar o'z ovozi, taklif va tashabbuslari eshitilayotganini qalbdan his qildi. Shu tuyg'u ularni yangi g'oyalar sari yetaklaydi. Kelajak esa anan shu ishonchdan boshlanadi.



## ORZULARIMIZ QANOT QOQDI

**Asal ZIYODOVA,****Qarshi shahridagi “Bolalar akademiyasi” xususiy maktabi asoschisi:**

– Bu yilgi 24-fevral ko'plab tengdoshlarim qatori yodimda bir umr muhrlanib qoladi. Prezidentimiz bilan muloqotda ishtirok etish men uchun katta sharaf va unutilmas voqea bo'ldi. Ushbu uchrashuvda so'z olib, o'z hayot yo'lim, tadbirkorlikka qadam qo'yishim va yosh pedagoglar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida fikrlarimni bildirdim.

Men tadbirkor hamda pedagog sifatida ingliz tilini o'rganish va o'rgatishga bo'lgan qiziqishim orqali faoliyat boshlaganman. Talabalik paytimda kichik ijara xonada dars o'tishdan boshlangan yo'lim bugungi kunda “Bolalar akademiyasi” xususiy maktabini ochishga poydevor bo'ldi. Bu oson kechmadi, albatta. Boshida moddiy qiyinchiliklar, ikkilanishlar ham bo'ldi. Lekin yaratilgan imkoniyatlar menga kuch berdi.

Viloyatimizdagi “Aloqabank” ATB tomonidan ajratilgan 2,5 mlrd. so'mlik kredit va ikki yillik imtiyozli davr oilaviy tadbirkorligimizni boshlashimizga mustahkam zamin yaratdi. Bugun maktabimizda 400 ga yaqin o'quvchilar ta'lim olmoqda, 60 ga yaqin xodimlar ishlamoqda. Jamoamizning asosiy qismi yosh va iqtidorli pedagoglardan iborat. Bu alohida g'urur bag'ishlaydi.

Uchrashuvda biznes maktablari ochish tashabbusini qo'llab-quvvatlashimni bildirdim. Chunki pedagog bo'lgan yoshlar ham tadbirkorlik ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bu g'oya ko'plab yigit-qizlarga o'z orzusini ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Prezidentimiz tomonidan bildirilgan ishonchni chuqur his etdim. Bu ishonch bizga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Turmush o'rtog'im bilan birgalikda “Bolalar akademiyasi” filiallarini Qashqadaryoning barcha shahar va tumanlarida ochishni maqsad qilganmiz. Shu orqali viloyatimizda xususiy ta'lim rivojiga o'z hissamizni qo'shamiz.

## SUN'IY INTELEKT – KREDIT OLIISHGA KO'MAKCHI

**Behzod ALIYEV,**  
**yosh dasturchi:**

– Kuni kecha biz, yoshlar hayotida o'ziga xos tarixiy voqelik yuz berdi. Prezidentimiz bilan bo'lib o'tgan uchrashuv ko'plab tashabbuskor tengdoshlarim hayotida muhim burilish nuqtasiga aylandi. Muloqot davomida ilgari surilgan yangi imkoniyatlar bizni hech ikkilanmay innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq qilishga undaydi.

Uchrashuvda innovatsion startaplar uchun 100 ming dollaracha investitsiya kiritishga qaratilgan e'tibor alohida ahamiyat kasb etdi. Bu qaror zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt hamda raqamli xizmatlar yo'nalishida ishlayotgan jamoalar uchun kuchli moliyaviy poydevor vazifasini o'taydi. Ayniqsa, xalqaro tajribaga ega biz kabi yosh mutaxassislarga uchun bu katta imkoniyat eshigidir.

AQSHning Illinoys universitetini tamomlab, yurtga qaytgach, axborot texnologiyalari sohasida o'z o'rnimni topishni niyat qildim. Natijada jamoamiz bilan “MoliyAI” startapini ishga tushirdik. Loyihamiz “President Tech Award” tanlovida 100 ming dollar mukofotga sazovor bo'lgan. Mukofot start bosqichidagi jamoamiz uchun texnologik yechimni takomillashtirish, ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish va infratuzilmani rivojlantirishga yetarli resurs bo'ldi.

“MoliyAI” g'oyasining mohiyati oddiy, ammo dolzarb. Yurtimizning chekka hududlarida ko'plab fuqarolar rasmiy daromad hujjatlariga ega emas. Banklar esa kredit ajratishdan oldin mijozning to'lov qobiliyatini baholashi shart. Aynan shu yerda axborot yetishmasligi muammosi yuzaga chiqadi. Jamoa sun'iy intellekt orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, qarz oluvchining qaytarish imkoniyatini foizlarda hisoblab beradi. Ana shu imkoniyatlarni o'z ichiga qamrab olgan loyihamiz taqdimotini ham Prezidentimizga namoyish etdik.

## TO'XTAB QOLISHGA HAQQIMIZ YO'Q

**O'g'iljayron XALDURDIYEVA,****“Yosh kitobxon” tanlovi g'olibasi, “Mutolaa” loyihasi****koordinatori:**

– Kitob bilan ulg'ayib, orzulariga mutolaa orqali erishayotgan qoraqalpog' qizi sifatida mamlakatimiz yetakchisi bilan ochiq muloqotda ishtirok etish baxtiga muyassar bo'ldim. Uchrashuvda so'zga chiqib, yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar uchun minnatdorlik bildirdim.

“Yosh kitobxon” tanlovining 2025-yilgi mavsumi g'olibami, Prezident sovrini – “BYD” elektromobili bilan taqdirlanganman. Millionlab kitobxonlar orasida g'olib bo'lganim hayotimni butunlay o'zgartirib yubordi – hayotga

boshqacha ko'z bilan qaray boshladim.

Shu bois muloqot chog'ida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yanada ommalashtirish, tengqurlarim o'rtasida mutolaa qiziqishni kuchaytirish bo'yicha takliflarni bildirdim. Prezidentimiz bilan qo'l berib ko'rishganimda, bu insonning “Qoraqalpog'istonlik qizim, men sizlarga ishonaman, harakatdan to'xtamang”, degan so'zlari qalbmga chuqur o'rinsadi. Shu lahzada yelkamdagi katta mas'uliyat borligini his qildim.

Endi men ortimdan yoshlarni ergashtira olishim kerak. “Kitobxon millat” g'oyasiga amaliy hissa qo'shishim zarur.

To'xtab qolishga haqqim yo'q. Doimo o'qish, izlanish va olg'a intilish asosiy maqsadim bo'ldi.



## TASHABBUSDAN – AMALIY HARAKATGA

**Murodbek RAHMONBERDIYEV,****Yoshlar ishlari agentligining Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig'i:**

– Yurtimizda yoshlar siyosati mutlaqo yangi mazmun bilan boyimoqda. Prezidentimizning yigit-qizlar bilan uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslar bu borada aniq dasturiy yo'nalishni belgilab berdi. Xususan, hududlarda “Yoshlar biznes inkubatori”ni tashkil etish g'oyasi kelajak vorislarini tadbirkorlikka o'qitish, g'oyani loyihaga aylantirish va moliyaviy ko'mak mexanizmlarini bir joyga jamlashni nazarda tutadi. Jizzaxda o'tgan 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar ushbu siyosatning amaliy ifodasiga aylandi.

Raqamlarga murojaat qilsak, “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida “Aloqabank” ATBning hududiy kompleks xizmat ko'rsatish

markazi tomonidan 725 ta loyihaga 99 mlrd. so'm imtiyozli kredit ajratilgan. Eng muhimi, mazkur tashabbuslar orqali 1 158 nafar yosh bandligi ta'minlandi.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga 400 ta loyihaning hayotga tatbiq etilgani ham e'tiborga loyiq. Natijada 1 ming nafardan ziyod viloyatimiz o'g'il-qizlari doimiy daromad manbaiga ega bo'ldi. Bu ko'rsatkich hudud iqtisodiyotida kichik biznes ulushi ortib borayotganini anglatadi. Muhimi, bunday imkoniyatlar orqali yoshlar o'z g'oyasini amalga oshirishga ishonch hosil qilmoqda.

“Kelajakka qadam” loyihasi doirasida

“Milliy bank” AJning viloyat bo'limi tomonidan 232 nafar talabani 6,9 mlrd. so'mlik tashabbuslari moliyalashtirildi. Bu mablag' mutaxassislarning mustaqil faoliyat boshlashiga jiddiy turtki beradi. Loyiha 4 478 nafar bitiruvchining bandligiga xizmat qilishi rejalashtirilgani esa ta'sir doirasi ancha keng ekanini ko'rsatadi. Asosiysi, yoshlar tadbirkorlikka jalb etilgani sari ularning ijtimoiy faolligi oshib, hududlarda ishsizlik darajasi pasayadi, ichki bozorda raqobat muhiti shakllanadi. Shunday ekan, viloyatimiz yaqin yillarda innovatsion va tadbirkor yoshlar markazlaridan biriga aylanishi, shubhasiz.

**Ulug'bek RO'ZIMATOV**  
 (“Xalq so'zi”) yozib oldi.

Rossiyaning Yekaterinburg shahridagi muzeyda Amir Temur maqbarasiga tegishli g'ayrioddiy tarixiy artefakt saqlanmoqda.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo****MUASSISLAR:**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Qonunchilik palatasi Kengashi**  
**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi**  
**Senati Kengashi****Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**TELEFONLAR:****Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;**  
**e'lonlar 71-259-74-55.**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulg'iga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ubunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.

Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.**  
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.  
Musahhah S. Islomov.**“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:**  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 00.30**1 2 3 4 5 6**